

## SCIENTIFIC METHOD AND ITS CHARACTERISTICS

Ergasheva Diyora Turdialiyevna

Student of Termiz State Pedagogical Institute

Scientific supervisor: Makhmud Mukumov

Email address: nergashev831@gmail.com

### Abstract

It is no exaggeration to say that the scientific method is an integral part of linguistics and methodology. This article provides information about the scientific method, scientific term, scientific texts, and first of all, the history of the scientific method, stylistics, and speech methodology, and its departments. Examples are always given to it.

**Key words:** scientific method, stylistic, clarity, objectivity, term, methodology.

## ILMIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Ergasheva Diyora Turdialiyevna

Termiz Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Makhmud Mukumov

### Annotatsiya

Ilmiy uslub tilshunoslik va metodologiyaning ajralmas qismidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu maqolada ilmiy uslub, ilmiy atama, ilmiy matnlar va eng avvalo, ilmiy uslub, stilistika va nutq metodologiyasining tarixi, uning bo'limlari haqida ma'lumotlar berilgan. Bunga har doim misollar keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy uslub, stilistika, aniqlik, ob'ektivlik, termin, metodologiya.

Ilmiy uslub haqida so'z yuritishdan oldin uslubiyat haqida ba'zi muhim ma'lumotlar aytib o'tish joiz. Chunki ilmiy uslub uslubiyatning bir ko'rinishi bo'lmish nutq uslubiyati tarkibiga kiruvchi kichik bir bo'lim hisoblanadi. Uslubiyat ( stilistika ) – grekcha “ stylos ” so'zidan olingan bo'lib, suyakdan yasalgan uchli tayoqcha degan ma'noni anglatadi. Qadimgi greklar mum surtilgan taxtaga ana shu tayoqcha bilan yozganlar.

Stil – uslub so'zining izohli lug'atlarda bir nechta ma'nolari berilgan. O'tgan asrning 40-yillarida D. A. Ushakovning tahriri ostida chiqqan “ Толковый словарь русского языка ” asarida stil so'zining 4 xil ma'nosi berilgan ( bu 2 tomlik (1981 ) va 5 tomlik ( 2006 – 2008 ) “ O'zbek tilining izohli lug'ati ” da ham izohlangan )

Uslubiyat ( stilistika ) fani akademik V.V. Vinogradov tasnifining birinchi va ikkinchisi asosida shakllangan. Uchinchi adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi. Sababi badiiy adabiyot uslubi keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, uslubshunoslikning ikki ko'rinishini ajratamiz:

1. **Nutq uslubiyati.** Bunga so'zlashuv uslubi, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub kiradi.

2. **Lingvistik.** Bunga fonetik uslubshunoslik, leksik uslubshunoslik, fraziyalogik uslubshunoslik, grammatik uslubshunoslik kabilar kiradi .

Yuqorida aytib o'tilganidek ilmiy uslub nutq uslubiyatining tarkibiga kiradi. Ilmiy uslubning vujudga kelish tarixini o'rganish uchun nutq uslublari shakllariga nazar tashlash lozim. Nutq uslublari til taraqqiyotining ma'lum davrida asta – sekin shakllanadi va o'zgarishlarga uchraydi. Masalan publitsistik uslubning yozma shakli XX asr boshida nashriyot va vaqtli matbuot ishlari doirasining kengayib borishi bilan bog'liq tarzda yuzaga keldi. Keyinchalik badiiy uslub shakllana bordi va rivoj topdi. Umumxalq tili zaminida rasmiy, **ilmiy** singari yangi nutq uslublari vujudga keldi. Bundan ko'rinib turibdiki, ilmiy uslub boshqa nutq uslubiyati shakllariga qaraganda keyinroq yuzaga kelgan.

Nutq uslublarining og'zaki va yozma shakllariga ega turlari mavjud bo'lib, ulardan biri – ilmiy uslub. Ilmiy uslubning yozma ( ilmiy asar, maqola yoki darslik) va og'zaki ( ma'ruza, doklad kabi ) formalari ham bor

Nutq uslublari o'ziga xos xususiyatlardan qat'i nazar, adabiy til me'yorlari asosida umumiylikka ega. Adabiy me'yor faqat yozma adabiy yozma til uchungina taalluqli bo'lmay, u og'zaki adabiy til uchun ham zarur holatdir.

Vazifaviy uslublar nutq ko'rinishlarining asosiy vazifasiga ko'ra ( aloqa – aralashuv, ta'sir etish kabi ) quyidagi uslublarga ajratiladi:

1) Ilmiy uslub. 2) Rasmiy uslub. 3) So'zlashuv uslubi. 4) Publitsistik uslub. 5) Badiiy uslub. Quyida ilmiy uslub haqida batafsil ma'lumot bilan tanishib chiqamiz.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar va ilmiy izlanishlarning asosiy tilidir. Ushbu uslubning shakllanishining asosiy sababi ilmiy tadqiqotlar, ilmiy bayonnomalar va ilmiy asarlar hisoblanadi. Bundan tashqari ilmiy tafakkur, borliqni idrok etishda dalil va aniq faktlarga asoslanishi fikriy izchillik omillari ham ushbu uslubning shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan. Ilmiy uslubda adabiy me'yorga amal qilinadi. Ilmiy uslubda borliq, undagi narsa va hodisalar, tabiat va jamiyatda munosabatlar haqida aniq fikr bayon qilinadi, ta'riflanadi, izlanadi. Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lib, aniq maqola, ilmiy risola, monografiya, darslik, dissertatsiya, ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida bo'ladi. Ilmiy uslub qaysidir ma'noda rasmiy va u so'z tanlaydi. Ilmiy uslubda umumiy til so'z qismi toraytiriladi, hissiy so'zlar, lahja va shevalar ishlatilmaydi.

Shu bilan birgalikda ilmiy uslubning bir nechta o'ziga xos xususiyatlari mavjud: Aniqlik va Obyektivlik.

**Aniqlik** haqida so'z yuritadigan bo'lsak, unda har bir ilmiy bayon, tushuncha va fikr aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun ilmiy uslubda so'zlarni aniq bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantdoshlari orasidan yoritib berilayotgan masalaning mohiyatini aniq ifoda ettiriladigan birini tanlash lozim. Terminlarni qo'llash ushbu uslubda asosiy ahamiyatga ega. Ya'nikim, har bir sohava yo'nalsihda termin va atamalar mavjud bo'lib, bu termin va atamalar ilmiy uslub namunasi hisoblanadi va ilmiy terminlardeb nomlanadi. **Termin**-ishlab chiqarish, ilm-fan yoki san'atning har qanday sohasi uchun maxsus konseptsianing nomi bo'lgan so'z yoki ibora. Bunga misol tariqasida ushbu jumla keltiriladi.

III va IV komplekslarga xromoproteidlar guruhidagi murakkab oqsillar-sitoxromlar kiradi. **Xromoproteidlar** – murakkab bo'yalgan oqsillar. **Sitoxromlar**-tarkibida temir atomlari bo'lgan murakkab oqsillar. **Tilshunoslik**- til haqidagi fan. **Antropolingvistika**- tilshunoslikning til lug'ati,

grammatikasi va boshqa xususiyatlarini o'rganuvchi soha. **Sintagmatika** - tildagi birlikni bir yo'nalishda biriktirish.

Yuqorida biologik va tilshunoslikka oid ilmiy terminlar berib o'tildi. Bundan tashqari adabiyotlarda ham, tarix, tibbiyot, kimyo, soliq, uchuvchilik, tilshunoslik kabi sohalarda ham o'z yo'nalishiga oid shunday ilmiy terminlar mavjud.

**Obyektivlik.** Ilmiy adabiyotlarda bu uslub borasida til materiallari fikrning haqqoniyligi, obyektivligiga xizmat qiladi. Ya'ni, bu uslubdan foydalanish obyektiv fikrlash va haqqoniy dalil va faktlarga tayanishni talab qiladi.

Ko'p hollarda ilmiy uslubdagi matnlarda ta'rif va aql-idrok kabi so'zlar ishlatiladi.

Ilmiy uslubning maqsad va vazifasi o'quvchiga yetkazilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni va faktlarni aniq taqdim etish, umumlashtirish va tasniflash, g'oyani ilgari surish, mantiqiy dalillarni keltrib chiqarish, qonunlarni shakllantirish.

Uning o'ziga xos belgilari quyidagilar:

1. Ilmiy uslubda fe'llarning majhul va aniq nisbatlaridan foydalaniladi. Va shuningdek kuchaytirish, bo'rtirish, ta'kid, emotssionallik kabilar ishlatilmaydi.
2. Ilmiy uslubda baho shakllari, sinonimlar, ijobiy yoki salbiy munosabatlarni ifodalovchi so'zlar, masalan, yuz, bet, aft, bashara, ruxsor kabi sinonimlar qatorining dastlabki ikkitasi qo'llanilishi mumkin, xolos. Jonli so'zlashuvga xos muomala – munosabatlarni anglatuvchi so'zlar umuman ishlatilmaydi.

Ilmiy uslubning til xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak ular quyidagilardan iborat:

1. So'z birikmalarida - atamalar, aniq so'zlar, ramziy vositalarning yetishmasligi.
2. Morfologiyada – ismlarning ustunligi, unutilgan ismlar, siz; fe'llar 1 va 2 litr, birliklar d; laxta zarralari va aralashuvlari.
3. Sintaksisda – so'zlarning bevosita tartibi; noaniq shaxsiy va shaxssiz hukumlarning ustunligi; murakkab jumlar ko'pligi.

Ilmiy sohadagi aloqaning asosiy kommunikatsion vazifasi ilmiy tushunchalar va xulosalar ifodasidir.

Ilmiy ma'ruza so'zlari uch asosiy qatlamdan iborat: umumiy so'zlar, umumiy ilmiy so'zlar va atamalar: Umumiy so'z umumiy tilning so'zlari ko'pincha ilmiy bayonlarda keladi. Ilmiy uslubda so'zlar o'zlarining nominal ma'nosida qo'llaniladi va bu obyektivlikni ifodalaydi.

Umumiy ilmiy so'zlar – ilmiy ma'ruzalarning ikkinchi asosiy qismi bo'lib, ilmiy obyektlarni ta'riflovchi ilmiy tilidir. Umumiy ilmiy so'zlar ham ilm – fanning turli sohalaridagi jarayonlarni ta'riflashi bilan terminlarga o'xshaydi. Lekin ular terminlar emas. Misol uchun natija, tahlil, magnit, element va boshqalar.

## Xulosa

Yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, ilmiy uslub tilshunoslik va uslubshunoslikda katta ahamiyatga ega. Biz ilmiy uslubni faqatgina ilmiy asarlar va ma'ruzalarda emas, balki hayotimizning har bir jabhasida ko'rishimiz mumkin. Ilm-fan olamiga chuqur kirib borayotgan har bir inson ushbu uslubga duch keladi. Ilmiy uslub ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'roq uchramiz. Ilmiy uslubning fan sifatida shakllanib borayotganining sabablari shulardan iborat.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. A.A. Abduazizov “ Tilshunoslik nazaryasiga kirish ”. “ Sharq ” nashriyoti Matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh nashriyoti Toshkent – 2010. 151-bet.
2. Mitrofanova O.D. Ilmiy-tehnika adabiyot tili / O. Mitrofanova – Moskva: Izd – vo MGU, 1973. 30-bet.
3. Aleeva A. Ya. Rus tili ( nutqning ilmiy uslubi ) Qo'llanma. 1-qism/ A.Y. Aleeva – Tambov : TSTU nashriyot uyi, 2003. 72-bet
4. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek tilining ilmiy stili. – Toshkent: Fan. 1984. 46-bet.
5. A.J.Omonturdiyev, Sh.I. Abduraimova “ O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati”. Toshkent – 2016. 38 – bet
6. <https://fayllar.org>.